



IJTIMOIIY TARMOQLARNING YUQORI SINIF O'QUVCHILARI ONGI VA ESTETIK DIDIGA TA'SIRI

Tolipova Ozoda Ikromovna

Qo'qon DU v. b. dotsenti, p. f. b. f. d. (PhD)

o16755505@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda ijtimoiy tarmoqlarning yuqori sinf o'quvchilari ongiga, dunyoqarashiga hamda estetik didining shakllanishiga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'sirlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarning internet va virtual muhitdan foydalanish madaniyati, axborotni tanlash ko'nikmalari, milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabati ham yoritilgan. Tezisda yoshlarning estetik tafakkurini rivojlantirishda ota-ona, maktab va pedagoglarning vazifalari haqida ilmiy asoslangan fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, yuqori sinf o'quvchilari, estetik did, media madaniyat, internet, axborot xavfsizligi, tarbiya, yoshlar ongiga ta'sir, ma'naviyat, virtual muhit.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida internet va ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilari orasida Telegram, Instagram, TikTok, YouTube kabi platformalardan foydalanish kundalik ehtiyoj darajasiga yetdi. Ushbu tarmoqlar yoshlarning dunyoqarashi, fikrlashi, nutqi, xulqi hamda estetik didiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. O'rtacha odam kuniga 2 soat 24 daqiqa vaqt sarflaydi. Eng ko'p ishlatiladigan ijtimoiy tarmoqlar va yuklab olish ko'rsatkichlari bilan – Facebook(10mlrd+), YouTube(10 mlrd+), WhatsApp(10 mlrd+) va Instagram(5 mlrd+). Ijtimoiy tarmoqlardan eng ko'p foydalanadigan yosh guruhi 18-29 yosh. Dunyodagi eng ommabop ijtimoiy media platformasi Facebook bo'lib, oyiga 2.989 milliard faol foydalanuvchiga ega. YouTube ikkinchi eng mashhur ijtimoiy media platformasi bo'lib, oyiga 2.527 milliard faol foydalanuvchiga ega. WhatsApp uchinchi eng mashhur ijtimoiy media platformasi bo'lib, oyiga kamida 2 milliard faol foydalanuvchiga ega. Instagram to'rtinchi eng mashhur ijtimoiy media platformasi bo'lib, oyiga 2 milliard faol foydalanuvchiga ega. TikTok beshinchi eng mashhur ijtimoiy media platformasi bo'lib, oyiga 1.9 milliard faol foydalanuvchiga ega. Odamlar televizor tomosha qilishdan ko'ra ko'proq vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazadi.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish rivojlangan mamlakatlarda eng yuqori. Ijtimoiy tarmoqlardan qishloqlardagidan ko'ra shahar aholisi ko'proq foydalanadi. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish yoshi kattalar orasida oshib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning hayotimizdagi o'rnini inkor qilib bo'lmaydi. Biroq tahlikali jihatlariga ham ko'z yumolmaymizki, ijtimoiy tarmoqlarda vaqtimizni va ruhiy sog'ligimizni ham qurbon beryapmiz. Ijtimoiy tarmoqlar yangi hodisa bo'lgani uchun uning atrofida hali hanuz



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



to'liq tadqiqotlar olib borilmagan. Ayrim kishilar kundalik stress va tashvishlardan uzoqlashish uchun ijtimoiy tarmoqlardan panoh topishga urinishadi. Ammo tadqiqotlar ijtimoiy tarmoqlar stressni ozaytirish uchun emas, aksincha, ruhiy ziqlik va asabiylikni ortirish uchun xizmat qilishini ta'kidlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadigan ayollarda erkakalarga qaraganda ruhiy ziqlik ko'proq kuzatiladi. Tadqiqotlar natijasida, ijtimoiy tarmoqlarga qaram bo'lgan kishilarda xavotir, vahima, asabiy tajanglik va behalovatlik boshqalarga nisbatan ko'proq aniqlandi. Yetti va undan ko'proq ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadigan foydalanuvchilar umuman foydalanmaydigan va yoki 1-2 akkuantdan foydalanadiganlardan ko'ra ko'proq xavotir hamda tajanglikda yuradilar. Ba'zi tadqiqotlar ruhiy tushkunlik va ijtimoiy tarmoqlar orasida qat'iy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatsa-da, ayrim mutaxassislar ijtimoiy tarmoqlarni ruhiy tushkunlikdan xalos etuvchi ijobiy jarayon sifatida ham baholashadi. Bunga sabab ijtimoiy tarmoqlarda biz ko'radigan reelslar, kontentlar va videolar boshqalarga qilingan yaxshiliklar, ibratli videolar, sovg'alar ulashish haqida bo'lsa insonda hotirjamlik va yaxshilik qilish kabi hislarni uyg'otadi. Internetning virtual makonida ma'lumotlarning mavjudligi insoniyat rivojlanishining yangi bosqichi boshlanishi bilan bog'liq. Internet manbalarining ochiqligi va o'sishi, onlayn xizmatlarning mashhurligi turli xil hayotiy vazifalarni samarali hal qilish imkonini berdi. Hozirgi vaqtda yetuk va keksa odamlar ham ko'p narsalarni hal qilish uchun onlayn xizmatlardan faol foydalanmoqdalar.

Ta'lim muassasalarining o'qituvchilari, psixologlari va ota – onalar ijtimoiy tarmoqlarda o'quvchilarni ortiqcha vaqt o'tkazish muammolaridan xavotirda. Virtual makonga sho'ng'ish xulq - atvor va shaxsiy rivojlanishdagi o'zgarishlarga oxir - oqibat sezilarli darajada hissa qo'shadi. Ijtimoiy tarmoqlar fikr almashish, ijtimoiy kommunikatsiya, ma'naviy tarbiya, firibgarlik va ekstremizm kabi masalalarda yoshlar ongiga kuchli va ikki yoqlama ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy tarmoqlar insonga ikki xil ta'sir ko'rsatadi. Ijobiy ta'sir: do'st orttirish, diniy va maorifiy kontent, o'zini namoyon qilish platformasi, o'quvchilar turli ta'limiy kanallar, elektron kutubxonalar va videodarslar orqali bilim olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Xususan, chet tillarini o'rganish, fanlarga oid ma'lumotlarni izlash va ijodiy faoliyatni rivojlantirishda internetning o'rni katta. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning estetik qarashlarini boyitishda ham muhim ahamiyatga ega. Turli san'at asarlari, milliy va jahon madaniyatiga oid materiallar, teatr va musiqa namunalari o'quvchilarning estetik dunyoqarashini kengaytiradi. Ayniqsa, tasviriy san'at, dizayn, fotografiya va milliy qadriyatlarga oid sahifalar yoshlarning didini shakllantirishga yordam beradi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali o'quvchilar o'z fikrini erkin ifodalash, ijodiy ishlari bilan bo'lishish va jamoa bilan muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa ularning kommunikativ kompetensiyasini oshiradi. Salbiy ta'sir: internet qaramligi, qisqa muloqot oqimi, yolg'on axborot, ekstremistik, diniy yoki dunyoviy kontent. O'tgan



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



asrning oxirida (90-yillar) keng tarqalishi bilan ajralib turadigan ijtimoiy-madaniy muhit barcha turdagi axborot resurslari va ularga cheksiz kirish tezda shakllanmoqda. Internetda axborot manbalarining ochiqqligi va o'sishi onlayn xizmatlarning mashhurligi, bir tomondan, turli xil hayotiy vazifalarni samarali hal qilish imkonini beradi, boshqa tomondan, foydalanuvchilar tomonidan ommaviy virtual makonda o'tkaziladigan vaqt o'sish omillariga aylanadi. Ijtimoiy tarmoqlarning mavjudligi va gadjetlarning tarqalishi, virtual rejimda nazoratsiz qolish imkoniyatlarini taqdim etadi. Har xil turdagi internetga qaramlik insonning umumiy hayotiy potentsialining pasayishiga salbiy ta'sir qiladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, internetga qaramlik nafaqat bolalar va yoshlar shuningdek, yetuk va hatto keksa odamlarga ham ta'sir qiladi. 2003 yildan keyin tug'ilganlar butunlay boshqacha tarzda ijtimoiylashdi. Zamonaviy dunyoda Internetning keng tarqalishi quyidagilarga olib keladi, shaxsiyatning o'ziga xos, nisbatan alohida fazilatlarini shakllantirish, ego - shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini berish va tuzilishda haqiqiy o'ziga xoslik mavjudligi haqida gapirishga imkon beradi.

Estetik did — bu insonning go'zallikni his etishi, uni qadrlashi va hayotda to'g'ri baholay olish qobiliyatidir. Ushbu didning shakllanishida oila, maktab, san'at bilan bir qatorda bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar ham muhim vositaga aylangan. Ijtimoiy tarmoqlarda san'at, musiqa, dizayn, fotografiya, teatr, milliy madaniyat va adabiyotga oid sahifalar juda ko'p uchraydi. O'quvchilar bunday sahifalarni kuzatish orqali estetik qarashlarini boyitadi. Masalan, tarixiy obidalar, milliy liboslar, xalq amaliy san'ati, mumtoz musiqa yoki tasviriy san'atga oid videolar yoshlarning go'zallikni anglash hissini rivojlantiradi. Ayniqsa, milliy qadriyatlarga oid kontent o'quvchilarda milliy g'urur va ma'naviy didni shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar ijodkorlikka qiziq boshlaydi. Ko'plab o'quvchilar rasm chizish, fotografiya, videomontaj, she'r yozish yoki musiqa bilan shug'ullanishga internet orqali ilhom oladi. Bu esa ularning estetik tafakkurini rivojlantiradi va ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqaradi. Ammo ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siri ham mavjud. Ba'zi platformalarda yengil mazmundagi videolar, sun'iy hayot tarzi, ma'naviyatga zid bo'lgan kontentlar keng tarqalgan. Bunday materiallar yoshlarning estetik didiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Natijada ayrim o'quvchilar tashqi ko'rinishga haddan tashqari berilib ketishi, haqiqiy qadriyatlarni unutishi yoki milliy madaniyatdan uzoqlashishi mumkin. Yana bir salbiy jihat shundaki, qisqa va tezkor videolar yoshlarning chuqur fikrlash qobiliyatini pasaytiradi. Kitob o'qishga qiziqish kamayadi, natijada estetik tafakkur yuzaki shakllanib qoladi. Chunki haqiqiy estetik did faqatgina tashqi ko'rinish bilan emas, balki ma'naviyat, madaniyat va tafakkur bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli pedagoglar va ota-onalar yoshlarni ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri foydalanishga o'rgatishi zarur. O'quvchilarga foydali sahifalarni tavsiya qilish, milliy san'at va madaniyatga oid materiallarni ko'rsatish, kitobxonlik va teatrga qiziqtirish orqali ularning estetik didini sog'lom shakllantirish mumkin. Yuqori sinf o'quvchilarining estetik didini shakllantirishda oila,



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



maktab va jamiyatning o'рни muhimdir. Ota-onalar farzandlarning internetdan foydalanish vaqtini nazorat qilishi, ularni foydali va tarbiyaviy mazmundagi sahifalarga yo'naltirishi zarur. Pedagoglar esa dars jarayonida media savodxonlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishi kerak. O'quvchilarga axborotni tahlil qilish, foydali va zararli ma'lumotlarni farqlash ko'nikmalarini o'rgatish bugungi kunning asosiy talablaridan biridir. Shuningdek, milliy madaniyat, san'at, adabiyot va qadriyatlarga oid tadbirlar orqali yoshlarning estetik tafakkurini rivojlantirish mumkin. Kitobxonlikni targ'ib qilish, teatr va muzeylarga sayohatlar tashkil etish ham muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi davrda ijtimoiy tarmoqlar oddiy muloqot vositasi bo'lib qolmay, yoshlarning fikrlashi va hayot tarzini boshqaruvchi muhitga aylanib bormoqda. Yuqori sinf o'quvchilari kunining katta qismini telefon va internet bilan o'tkazayotgani sababli ular ko'rayotgan kontent ong ostiga tez ta'sir qiladi. Ayniqsa, algoritmlar asosida ishlovchi TikTok, Instagram Reels va YouTube Shorts kabi platformalar foydalanuvchining qiziqishiga mos videolarni ketma-ket tavsiya qiladi. Bu esa o'quvchining dunyoqarashi va estetik qarashlarini asta-sekin shakllantiradi. Psixologlarning fikricha, o'smirlik davrida insonning o'ziga baho berishi va "ideal obraz" haqidagi tushunchasi faol shakllanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda esa ko'pincha mukammal hayot tarzi, qimmat buyumlar, tashqi ko'rinish va mashhurlik targ'ib qilinadi. Natijada ayrim o'quvchilar o'z hayotidan norozi bo'lib qolishi, o'zini boshqalar bilan taqqoslashi yoki sun'iy obraz yaratishga intilishi mumkin. Bu holat ularning ruhiy holati va estetik qarashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yana bir muhim jihat — ijtimoiy tarmoqlarda vizual madaniyat kuchayganidir. Oldin yoshlar kitob, teatr yoki san'at orqali estetik tarbiya olgan bo'lsa, bugungi kunda bu vazifani ko'proq telefon ekranlari bajarmoqda. O'quvchilar ko'proq qisqa videolar, rang-barang tasvirlar va trendlar orqali go'zallikni baholashga o'rganmoqda. Bu esa ularda tezkor qiziqish uyg'otadi, biroq ayrim hollarda chuqur estetik tafakkurning rivojlanishini sustlashtiradi. Ijtimoiy tarmoqlarning yana bir ta'siri nutq madaniyatida ham ko'rinadi. Bugungi o'quvchilar internetdagi qisqartirilgan so'zlar, aralash tillar va trend iboralarni kundalik hayotda ko'p ishlatmoqda. Natijada ayrim yoshlarda adabiy tilga bo'lgan e'tibor kamaymoqda. Bu esa nafaqat nutq madaniyatiga, balki umumiy ma'naviy-estetik qarashlarga ham ta'sir qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarning foydali tomonlari ham juda ko'p. Hozir ko'plab yoshlar internet orqali rassomchilik, dizayn, chet tili, fotografiya va musiqa o'rganmoqda. Ayrim o'quvchilar o'z ijodiy ishlari bilan ijtimoiy tarmoqlarda tanilib, muvaffaqiyatga erishmoqda. Demak, virtual muhit yoshlarning iste'dodini namoyon qilish uchun ham imkoniyat yaratadi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, yoshlarning estetik didini sog'lom shakllantirish uchun ularda "media tanqidiy fikrlash" ko'nikmasini rivojlantirish kerak. Ya'ni o'quvchi internetdagi har bir ma'lumot yoki trendni to'g'ri qabul qilmasligi, uning foydali yoki zararli tomonini mustaqil tahlil qila olishi zarur. Bu esa zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, milliy qadriyatlarga asoslangan



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



kontentlarni ko'paytirish ham muhimdir. Chunki yoshlar ko'proq chet el madaniyatiga oid materiallarni kuzatayotgani sababli ayrim hollarda milliy urf-odatlar, milliy kiyim va an'analarga qiziqish kamayib bormoqda. Shu sababli internetda milliy san'at, adabiyot, tarix va madaniyatni targ'ib qiluvchi sahifalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda olimlar yoshlar orasida "raqamli estetik did" degan yangi tushuncha shakllanayotganini ta'kidlashmoqda. Ya'ni o'quvchilarning go'zallik haqidagi qarashlari endi ko'proq real hayotdan emas, balki telefon ekranlari orqali shakllanmoqda. Ular nimani chiroyli, zamonaviy yoki mashhur deb bilishi ko'pincha internetdagi trendlar bilan belgilanmoqda. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda mashhur bo'lgan kiyinish uslubi, xona bezagi, suratga tushish usuli yoki musiqa turi qisqa vaqt ichida minglab yoshlar orasida ommalashib ketadi. Bu holat yoshlarning estetik qarashlari tez o'zgarayotganini ko'rsatadi. Oldingi davrlarda estetik did uzoq yillar davomida shakllangan bo'lsa, hozir trendlar sababli u juda tez almashmoqda. Tadqiqotchilar yana bir muhim jihatni aytishadi: ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning "o'zini namoyish qilish ehtiyoji"ni kuchaytiradi. Yuqori sinf o'quvchilari surat yoki video joylash orqali boshqalarning e'tiborini kutadi. Layk va izohlar esa ularning ruhiy holatiga ta'sir qiladi. Agar ijobiy fikr ko'p bo'lsa, o'quvchi o'ziga ishonadi, aksincha bo'lsa, tushkunlikka tushishi mumkin. Shu sababli bugungi kunda psixologlar ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar o'ziga baho berishiga kuchli ta'sir qilishini alohida ta'kidlamoqda. Yana bir qiziq jihat — internet yoshlarning tasavvurini kengaytirishi bilan birga, ularni bir xil fikrlashga ham olib kelishi mumkin. Chunki algoritmlar foydalanuvchiga faqat o'zi qiziqqan narsalarni ko'rsatadi. Natijada o'quvchi boshqa qarashlar yoki madaniyatlarni kamroq ko'radi. Bu esa ayrim hollarda mustaqil fikrlashning susayishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, zamonaviy o'quvchilar "tezkor estetikani" qabul qilishga o'rganmoqda. Ya'ni ular uzoq matn yoki murakkab san'at asaridan ko'ra qisqa, rangli va tez o'zgaradigan videolarni ko'proq yoqtiradi. Shu sababli kitob o'qishga qiziqish pasayishi mumkin. Chunki internet miyani tezkor axborot olishga moslashtiradi. Biroq ijtimoiy tarmoqlar orqali ko'plab foydali loyihalar ham amalga oshmoqda.

Hozir ayrim o'quvchilar milliy hunarmandchilik, kitobxonlik, ekologiya, san'at va ta'limga oid sahifalar yuritmoqda. Bu esa internet faqat ko'ngilochar emas, balki tarbiyaviy va ma'rifiy vosita ham bo'la olishini ko'rsatadi. Mutaxassislar fikricha, kelajakda eng muhim ko'nikmalardan biri — "media estetik savodxonlik" bo'ladi. Bu insonning internetdagi go'zallik, reklama va trendlarni tanqidiy baholay olish qobiliyatidir. Chunki har bir chiroyli ko'ringan narsa ham haqiqiy qadriyat bo'lavermaydi. Hozirgi davrda ijtimoiy tarmoqlar inson miyasi ishlash tizimiga ham ta'sir qilayotgani haqida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, o'smir yoshdagi bolalarda diqqatning tez chalg'ishi, uzoq vaqt bir narsaga e'tibor qaratolmaslik holatlari ko'payayotgani kuzatilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri — qisqa va tez almashadigan kontentlarning miyaga doimiy ravishda ta'sir qilishidir. Masalan, TikTok



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



yoki Reels videolari odatda 15–60 soniya davom etadi. Yoshlar miyasi doimiy ravishda yangi tasvir, yangi musiqa va yangi axborotni qabul qilishga o'rganadi. Natijada oddiy kitob o'qish, uzun matnni tahlil qilish yoki bir mavzu ustida uzoq fikrlash qiyinlashadi. Bu esa chuqur tafakkur rivojiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Avvallari yoshlar uchun muvaffaqiyat bilim, odob yoki iqtidor bilan bog'langan bo'lsa, bugungi kunda ayrim o'quvchilar orasida mashhurlik "obunachi soni", "layklar" yoki "trendga chiqish" bilan o'lchanmoqda. Bu esa qadriyatlarining o'zgarishiga olib kelmoqda. Ba'zi o'quvchilar internetda ko'proq e'tibor olish uchun sun'iy xatti-harakatlar qilishga, noodatiy videolar olishga yoki o'zini boshqacha ko'rsatishga urinadi. Psixologlar buni "raqamli tasdiqlanish ehtiyoji" deb atashadi. Ya'ni inson boshqalarning virtual e'tirofiga qaram bo'lib qoladi. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, ijtimoiy tarmoqlardan uzoq vaqt foydalanish ayrim yoshlarda stress, xavotir va tushkunlik hissini kuchaytirishi mumkin. Chunki internetda hamma ko'pincha faqat eng yaxshi tomonini namoyish qiladi: chiroyli hayot, qimmat buyumlar, sayohatlar yoki mukammal tashqi ko'rinish. Buni kuzatgan o'quvchi esa o'z hayotini yetarlicha yaxshi emasdek his qilishi mumkin. Shuningdek, internetdagi salbiy izohlar yoki kiberbulling ham o'smir ruhiyatiga kuchli ta'sir qiladi. Ayrim yoshlar tanqidni juda og'ir qabul qiladi. Shu sababli bugungi kunda maktablarda nafaqat internetdan foydalanish, balki "raqamli psixologik xavfsizlik" haqida ham tushuncha berish zarur bo'lib qolmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda reklama juda yashirin va kuchli shaklda ishlaydi. Bloggerlar yoki mashhur insonlar orqali ma'lum kiyim, kosmetika, telefon yoki hayot tarzini targ'ib qilish yoshlarning didiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar asta-sekin qimmat buyumlarni "zamonaviylik belgisi" deb qabul qila boshlaydi. Bu holat ayrim hollarda moddiy narsalarni haddan tashqari qadrlashga olib keladi. Holbuki haqiqiy estetik did faqat tashqi ko'rinish emas, balki insonning ma'naviyati, nutqi, muomalasi va ichki madaniyati bilan belgilanadi. Internet global madaniyatni juda tez yoymoqda. Shu sababli ayrim yoshlar chet el madaniyatiga haddan tashqari qiziqib, o'z milliy qadriyatlariga e'tiborni kamaytirishi mumkin. Masalan, milliy kiyimlar, milliy musiqa yoki xalq san'atiga qiziqish pasayib, o'rniga ommaviy trend madaniyati kirib kelmoqda. Lekin bu jarayonning ijobiy tomoni ham bor. Agar internetda milliy madaniyat zamonaviy usulda targ'ib qilinsa, yoshlar unga yana qiziq boshlaydi. Hozir ko'plab bloggerlar milliy liboslar, o'zbek taomlari, tarixiy joylar va xalq san'atini ommalashtirib, yoshlarning estetik qarashini boyitmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardagi filtrlar va foto tahrirlash dasturlari yoshlarning tabiiy go'zallik haqidagi tasavvurini o'zgartirmoqda. Ayrim o'quvchilar filtrsiz suratga tushishni xohlamaydi yoki o'z tashqi ko'rinishidan norozi bo'lib qoladi. Bu esa o'ziga bo'lgan ishonchning kamayishiga olib kelishi mumkin. Psixologlarning fikricha, yoshlar real va virtual obraz o'rtasidagi farqni anglay olishi juda muhim. Chunki internetdagi ko'plab surat va videolar maxsus ishlov berilgan bo'ladi. Yana bir muhim muammo — vaqtning sezilmay sarflanishidir. Algoritmilar insonni ilova ichida uzoq ushlab turish uchun ishlab chiqilgan. Shu sababli



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



o'quvchi "bir necha daqiqa" deb kirgan platformada bir necha soat qolib ketishi mumkin. Bu esa uyqu rejimi, dars tayyorlash va real hayotdagi muloqotlarga salbiy ta'sir qiladi. Bugungi kunda yoshlar uchun eng kerakli ko'nikmalardan biri — media savodxonlikdir. Ya'ni internetdagi ma'lumotni tekshirish, yolg'on axborotni ajrata olish, manipulyatsiyani tushunish va virtual ta'sirlardan himoyalaniish qobiliyatidir. Chunki har bir trend foydali emas, har bir mashhur inson esa ideal namuna bo'lavermaydi. O'quvchilar ongli ravishda kontent tanlashni o'rganishi kerak.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ongini nafaqat axborot bilan, balki obrazlar, trendlar va virtual qadriyatlar orqali ham shakllantirmoqda. Shu sababli yuqori sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash, media madaniyat va milliy estetik qarashlarni rivojlantirish zamonaviy tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlar bugungi yoshlarning hayot tarzini, estetik qarashini, ruhiy holatini va hatto orzularini shakllantirayotgan kuchli omildir. U insonni ham rivojlantirishi, ham zarar yetkazishi mumkin. Asosiy masala — undan qanday foydalanishda. Ijtimoiy tarmoqlar yuqori sinf o'quvchilarining estetik didini shakllantirishda kuchli vosita hisoblanadi. Ular to'g'ri va maqsadli foydalanilganda yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitadi, ijodkorligini rivojlantiradi va go'zallikni anglash qobiliyatini kuchaytiradi. Nazoratsiz foydalanilganda esa salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu bois yoshlarni media madaniyat va ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar yuqori sinf o'quvchilari ongiga va estetik didiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan zamonaviy axborot vositasidir. Ularning ta'siri ijobiy ham, salbiy ham bo'lishi mumkin. To'g'ri foydalanilganda ijtimoiy tarmoqlar bilim olish, ijodkorlikni rivojlantirish va estetik dunyoqarashni boyitishga xizmat qiladi. Ammo nazoratsiz va maqsadsiz foydalanish yoshlarning ma'naviyati, ruhiyati hamda estetik didiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Shu sababli o'quvchilarda media madaniyatni shakllantirish, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash va internetdan oqilona foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 296 bet.
2. Musurmonova O. Oila ma'naviyati va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: "O'qituvchi", 2018. – 176 bet.
3. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: "O'qituvchi", 2019. – 312 bet.
4. To'xtaxodjayeva M.X. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: "Iqtisodmoliya", 2020. – 384 bet.
5. Hasanboyev J., To'raqulov X. Pedagogika. – Toshkent: "Fan", 2017. – 448 bet.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



6. Mahmudov M. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 2019. – 208 bet.
7. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: “O'qituvchi”, 2018. – 240 bet.
8. Qurbonov Sh. Yoshlar tarbiyasida media madaniyatning o'rni. – Toshkent: “Navro'z”, 2021. – 192 bet.
9. Xoliqov A. Zamonaviy ta'limda axborot texnologiyalari. – Toshkent: “Universitet”, 2022. – 256 bet.
10. Jo'rayev R., Tolipov O'. Pedagogik faoliyatda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: “Fan”, 2020. – 232 bet.